



UO'K: 581.9:502.7(575.1)

FORISH TUMANI CHO'L AGROEKOTIZIMLARIDA YAYLOV HOSILDORLIGINING IQLIM OMILLARI TA'SIRIDA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

O'ralova N.U. 

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

e-mail: temureshboyev929@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda Jizzax viloyati Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplamasi tarkibi va yaylov hosildorligining iqlim omillari ta'sirida shakllanish xususiyatlari baholangan. Transekt va kvadrat namuna olish usullari asosida 3 ta 1 m² va 3 ta 100 m² namuna maydonlarida biomassa, zichlik hamda floristik tarkib aniqlanib, statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: iqlim o'zgarishi, agroekotizim, yaylov hosildorligi, biomassa, transekt usuli, geterogen.

Abstract. This study evaluates the characteristics of the formation of vegetation cover composition and pasture productivity under the influence of climatic factors in desert agroecosystems of the Forish District. Based on transect and quadrat sampling methods, biomass, density, and floristic composition were determined in 3 plots of 1 m² and 3 plots of 100 m², followed by statistical analysis.

Keywords: climate change, agro-ecosystem, pasture productivity, biomass, transect method, heterogeneity.

Аннотация. В данном исследовании оценены особенности формирования состава растительного покрова и продуктивности пастбищ под влиянием климатических факторов в пустынных агроэкосистемах Форишский район. На основе методов трансект и квадратных проб были определены биомасса, плотность и флористический состав на 3 участках площадью 1 м² и 3 участках площадью 100 м² с последующим статистическим анализом.

Ключевые слова: изменение климата, агроэкосистема, урожайность пастбищ, биомасса, трансектный метод, гетерогенный.

KIRISH

Global iqlim o'zgarishlari qishloq xo'jaligi tizimlariga, ayniqsa cho'l agroekotizimlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Haroratning oshishi, yog'ingarchilik-ning kamayishi va tuproq degradatsiyasi o'simlik qoplamasi tarkibi va yaylov hosildorligiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Forish





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

tumani cho'l hududi iqlim o'zgarishlariga sezgir agroekotizimlardan biri bo'lib, bu hududda o'simlik qoplami va yaylov hosildorligini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Yaylov hosildorligining makoniy o'zgaruvchanligi iqlim omillari va ekologik sharoitlar ta'sirini aks ettiruvchi muhim indikator hisoblanadi. Cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi, ayniqsa kserofit va efemer turlar ulushi, iqlim sharoitlariga moslashuv darajasini ifodalaydi. Shu bois, o'simlik qoplami tarkibini transekt usuli asosida o'rganish hamda uning yaylov hosildorligi bilan bog'liqligini aniqlash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 20-maydagi O'RQ-538-son «Yaylovlar to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlarining asosiy maqsadi yaylovlardan unumli va oqilona foydalanishni tashkil etishni ta'minlaydi.

Jizzax viloyatida yaylovlarning umumiy maydoni 702 ming gektarni tashkil etib, bu respublikamiz hududidagi umumiy yaylov yerlarining 3,3% ulushini tashkil qiladi. [1.18-b].

Gayeyskaya, L.S. (1959) fikriga ko'ra, o'simlik o'sadigan muhitni ular tarqalgan o'simlik qoplamidan ajratish mutlaqo noto'g'ri hisoblanadi. Chunki har qanday yaylov maydonining qiymati, avvalo, undagi o'simlik qoplami bilan belgilanadi [Gayeyskaya, 1959].

Cho'l ekotizimlari ekologik jihatdan murakkab tizim bo'lib, ularda namlik tanqisligi, yuqori harorat, kuchli bug'lanish, tuproq sho'rlanishi va antropogen bosim o'simlik qoplami shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bunday hududlarda o'simlik qoplami tarkibi, turlarning tarqalishi va ekologik moslanishlarini o'rganish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Forish tumani cho'l va adir yaylov hududlarida o'simlik qoplami tarkibini transekt usuli asosida o'rganish hamda uning ekologik holati va yaylov hosildorligiga ta'sirini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot ishlari Jizzax viloyati Forish tumani cho'l va adir yaylov hududlarida olib borildi. Dala kuzatuvlari davomida o'simlik qoplamining umumiy holatini aniqlash hamda yaylov hosildorligini aniqlashda L.S.Gayeyskaya(1980) "O'zbekistonda cho'l yaylovlaridan oqilona foydalanish xususiyatlari" dagi transekt va kvadrat namuna olish usullari qo'llanildi.

Dala ishlari quyidagicha tashkil etildi:

- 3 ta 1 m² namuna maydonlari
- 3 ta 100 m² geobotanik maydonlar

Namuna maydonlari hududning turli ekologik sharoitlarini qamrab oladigan tarzda tanlandi. O'simliklar yer sathidan 2-3 sm balandlikda kesilib, laboratoriya sharoitida biomassa aniqlash uchun o'lchandi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi asosan kserofit va efemer turlardan tashkil topganligini ko'rsatdi. Bu holat hududda namlik tanqisligi va yuqori harorat sharoitida o'simliklarning ekologik moslashuvi natijasi hisoblanadi. Transekt kuzatuvlari o'simlik qoplami hudud bo'yicha notekis, ya'ni geterogen tarqalganligini aniqladi. Bu geterogenlik mikrorelyef, tuproq unumdorligi, namlik taqsimoti va antropogen bosim omillari bilan izohlanadi.

1-jadval

Forish tumani cho'l va adir yaylovlarida uchraydigan asosiy o'simlik turlari

T/r	O'zbekcha nomi	Lotincha nomi	Bir yillik	Ko'p yillik	Yem-xashak qiymati
1	Cherkez	Salsola richteri	-	+	+
2	Izan	Kochia prostrata	-	+	+
3	Sho'ra	Atriplex spp	-	+	+
4	Yantoq	Alhagi pseudalhagi	-	+	+
5	Yulg'un	Tamarix ramosissima	-	+	+
6	Shuvoq	Artemisia spp	-	+	+
7	Karrak	Cousinia spp	-	+	+
8	Yaltirbosh	Bromus tectorum	+	-	+
9	Efemer o'simliklar	Bromus, Poa, Eremopyrum spp.	+	+	+
10	Efemeroidlar	Tulipa spp., Allium spp.	-	+	-
11	Yovvoyi piyoz	Allium suworowii	-	+	-
12	Qo'ng'irbosh	Poa bulbosa	-	+	+

Ayniqsa, namlik nisbatan yuqori bo'lgan uchastkalarda o'simlik qoplami zichligi yuqoriroq bo'lgani kuzatildi. Hududda 12 ta o'simlik turi qayd etildi. Dominant turlar sifatida efemer o'simliklar (Bromus, Poa, Eremopyrum spp.) va Artemisia spp. ajralib turdi. Ushbu turlar qisqa vegetatsiya davriga ega bo'lib, namlik mavjud bo'lgan davrda tez rivojlanish xususiyati bilan tavsiflanadi.

2-jadval

Hududdagi o'simlik qoplami geobotanik maydonlarining soni va zichligi

Maydoncha	Shuvoq- Artemisia spp	Karrak- Cousinia	yovvoyi piyoz- Allium suworowii	Qo'zg'uloq- Phlomis thapsoides Bge.
1- maydon	148	80	176	-
2- maydon	90	137	221	-
3- maydon	120	120	278	139





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

Yaylov hosildorligi o'rtacha 100 g/m^2 ni tashkil etdi. Yuqori variatsiya ko'rsatkichi ($CV=43.3\%$) hudud ichida ekologik sharoitlarning keskin farqlanishini ko'rsatadi. Bu esa iqlim omillari yaylov hosildorligining makoniy geterogenligini shakllantiruvchi asosiy faktor ekanligini anglatadi. Bundan tashqari, ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan *Kochia prostrata*, *Artemisia* spp. va *Bromus tectorum* kabi turlar mavjudligi yaylovning chorvachilik uchun muhim resurs ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Forish tumani cho'l agroekotizimlarida o'simlik qoplami tarkibi va yaylov hosildorligi iqlim omillari ta'sirida shakllanishi aniqlandi. Hududda kserofit va efemer turlar ustunligi qurg'oqchil sharoitlarga ekologik moslashuvni aks ettiradi. Yaylov hosildorligining yuqori variatsiyasi o'simlik qoplami geterogen xarakterga ega ekanligini tasdiqladi. Transekt usuli o'simlik qoplami va ekologik holatni baholashda samarali metod sifatida o'zini oqladi. Olingan natijalar cho'l agroekotizimlarida yaylov resurslarini boshqarish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Forish tumani cho'l yaylovlarida o'simlik qoplamini mavsumiy asosda muntazam transekt, GPS koordinatalash va foto-kuzatuv orqali monitoring qilish tavsiya etiladi. Bu yaylov holatini aniq baholash va ozuqa bazasini boshqarishga xizmat qiladi. Dominant va oziqaviy qiymati yuqori o'simlik turlarini saqlash hamda tiklash choralarini kuchaytirish, yaylovdan me'yoriy foydalanish (rotatsion boqish) tizimini joriy etish zarur. Shuningdek, iqlimga mos agrotexnologiyalar qo'llash qurg'oqchilikka chidamli o'simliklar ekish, namni saqlovchi usullarni qo'llash orqali yaylov hosildorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin. Natijada yaylov ozuqa bazasining yaxshilanishi qo'ylarning oziqlanish darajasini oshirish orqali chorva hayvonlari mahsuldorligini barqarorligiga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev.T.M., G'aniyev.O.O. Yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etishni takomillashtirish / Ilmiy-uslubiy tavsiyanoma. - Toshkent, "PUBLISHING HIGH FUTURE" OK nashriyoti, 2025. 18-b.

2. Рузметов М. И., Тўраев Р. А. Ўзбекистон табиий яйлов ва пичанзорларида геоботаник тадқиқотлар ўткази бўйича услубий қўлланма. – Тошкент, 2018.

3. Гаевская Л.С. Особенности рационального использования пустынных пастбищ Узбекистана. В сб. «Природные условия, животноводство и кормовая база пустынь» Ашхабад, 1963.

4. Краснополин Е. С. О Методике расчетов при определении кормовых запасов и емкости каракулеводческих пастбищ. «Каракулеводство и звероводство», 1956. № 3.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

5. Морозов Н.Л. Определение емкости пастбищ с учетом сезонной динамики запасов, поедаемости и питательной ценности пастбищных кормов. “ДАН Туркменской ССР”. Ашхабад, 1955.
6. International scientific and practical conference “current problems of the sericulture field in new Uzbekistan and their scientific solutions based on innovative technologies”, may 1, 2025.
7. Parmanova D. M., Shoxnazarova Sh. A., O'ralova N.U. “Turli zotga mansub qo'ylarni “Best Mega Mix” to'la qiymatli ozuqadan foydalanib jadal burdoqilashning samaradorligi”.